

IQTISODIY TERMINLAR TIZIMIDA SO‘Z O‘ZLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Usmonova Ozodaxon Qaxramon qizi

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ozodausmonova054@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy terminlar tizimida so‘z o‘zlashtirish jarayonining lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Iqtisodiy terminlarning manba tillari, ularning tilga kirish yo‘llari, fonetik, grafik, morfologik va semantik moslashuv jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, lotin, fransuz va arab tillaridan o‘zlashgan iqtisodiy terminlarning shakllanishi hamda terminologik tizimdagi o‘rni misollar asosida izohlangan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy terminlarning xalqaro standartlashuv va milliy til me‘yorlari uyg‘unligida rivojlanishini ko‘rsatadi hamda o‘zbek va ingliz tillari iqtisodiy terminologiyasini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy terminologiya, so‘z o‘zlashtirish, termin, terminologik tizim, iqtisodiy terminlar, etimologiya, semantik moslashuv, fonetik moslashuv, morfologik moslashuv, derivatsiya, xalqaro terminlar, ingliz tili, o‘zbek tili.

Abstract: This paper examines the linguistic features of word borrowing in the system of economic terminology. The study analyzes the origin of economic terms, the ways they enter the language, and the processes of their phonetic, graphic, morphological, and semantic adaptation. Particular attention is paid to economic terms borrowed from Latin, French, and Arabic, as well as their role in the formation and development of modern economic terminology. The findings demonstrate that borrowed terms enrich the terminological system while adapting to the norms of the recipient language. The research also provides a theoretical basis for the comparative study of

Uzbek and English economic terminology and contributes to a deeper understanding of the development of specialized vocabulary in the context of globalization.

Keywords: economic terminology, word borrowing, economic terms, terminology system, lexical borrowing, etymology, semantic adaptation, phonetic adaptation, morphological adaptation, derivation, international terminology, comparative linguistics.

KIRISH

Iqtisodiy terminologiya zamonaviy tilning eng tez yangilanayotgan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarning xalqaro miqyosda kengayishi, yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi hamda xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi terminlar tarkibining muntazam boyib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonda so'z o'zlashtirish iqtisodiy terminlarni shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy terminlarning katta qismi tilning ichki imkoniyatlari asosida emas, balki boshqa tillardan o'zlashtirish orqali yuzaga kelgan. O'zlashgan terminlar yangi tushunchalarni ifodalash bilan birga iqtisodiyot sohasidagi xalqaro tajribani ham aks ettiradi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy terminologiyani o'rganishda terminning kelib chiqishi, tilga kirish yo'li va qo'llanish xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. So'z o'zlashtirish oddiy leksik almashinuv emas. Yangi termin boshqa til tizimiga kirgach, qabul qiluvchi tilning fonetik, grammatik va semantik me'yorlariga moslashadi. Natijada u milliy terminologiyaning tabiiy tarkibiy qismiga aylanadi. Shu jihatdan iqtisodiy terminlarning o'zlashuvi ularning shakliy ko'rinishi bilan bir qatorda mazmuniy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi.

ASOSIY QISM.

Iqtisodiyot terminologiyasining shakllanishida derivatsiya va o'zlashtirish jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Ayrim terminlar tayyor holda boshqa tildan kirsam, ayrimlari o'zlashgan asos negizida

yangi terminologik birliklarning hosil bo'lishiga xizmat qiladi. Shu sababli o'zlashgan terminlar iqtisodiy terminlar tizimining keyingi taraqqiyotida ham faol ishtirok etadi. Ingliz iqtisodiy terminologiyasining tarixiy taraqqiyoti ushbu jarayonni yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda faol qo'llanayotgan *capital, finance, budget, commission, audit, analysis, export, deficit, deposit* kabi terminlar dastlab lotin yoki fransuz tilidan ingliz tiliga kirgan, keyinchalik esa xalqaro iqtisodiy muloqot orqali boshqa ko'plab tillarga tarqalgan. Mazkur terminlarning keng qo'llanishi ularning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda umumiy ilmiy birlik sifatida shakllanganligini ko'rsatadi.¹ So'z o'zlashtirish tarixiy taraqqiyot bilan ham bevosita bog'liq. Masalan, *tariff* termini arab tilidagi *ta'rif* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab yuklar ro'yxati yoki bojxona yozuvlarini anglatgan. Keyinchalik ushbu termin fransuz tili vositasida ingliz tiliga kirib, bojxona to'lovlari va tashqi savdo munosabatlarini ifodalovchi iqtisodiy termin sifatida mustahkamlangan. Bunday misollar iqtisodiy terminlarning bir tildan ikkinchi tilga bevosita emas, balki vositachi tillar orqali ham o'tishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy terminlar orasida lotin tilidan o'zlashgan birliklar alohida salmoqqa ega. Bunga *contract, capital, dividend, debit, emission, economy* kabi terminlarni misol qilish mumkin. Ushbu birliklar asrlar davomida shakliy jihatdan ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, ularning asosiy ilmiy mazmuni saqlanib qolgan. Shu sababli ular bugungi kunda ham xalqaro iqtisodiy terminologiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Terminlarning o'zlashtirilishi faqat yangi leksemaning qabul qilinishi bilan cheklanmaydi. O'zlashgan terminlar asosida yangi terminologik birikmalar ham yuzaga keladi. Masalan, *contract* termini zamonaviy iqtisodiyotda *employment contract, insurance contract, sales contract, contract price, contract value* kabi ko'plab terminologik birikmalarning hosil bo'lishiga asos bo'lmoqda. Bu

esa o‘zlashgan terminlarning terminologik tizim ichida yangi birliklar yaratish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiy terminlarning o‘zlashtirilishida semantik moslashuv ham kuzatiladi. Ayrim terminlar umumxalq tilida bir ma'noni anglatrsa, iqtisodiyot sohasida aniq ilmiy mazmun kasb etadi. Natijada terminning qo‘llanish doirasi torayadi, biroq ilmiy aniqligi ortadi. Shu jihatdan terminologik o‘zlashtirish oddiy lug‘aviy o‘zlashtirishdan farq qiladi.

Iqtisodiy terminlarning tarixiy taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, ularning o'zlashtirilish jarayoni barcha terminlarda bir xil kechmaydi. Ayrim terminlar manba tilidan deyarli o'zgarmagan holda qabul qilingan bo'lsa, boshqalari fonetik, grafik yoki semantik moslashuv bosqichlarini bosib o'tgan. Shuningdek, terminlarning bir qismi vositachi tillar orqali kirganligi sababli ularning shakliy va mazmuniy tuzilishida ma'lum o'zgarishlar yuzaga kelgan. Natijada iqtisodiy terminologiya tarkibida kelib chiqishi, tuzilishi va funksional qo'llanishi jihatidan turlicha xususiyatlarga ega bo'lgan terminlar tizimi shakllangan.

Terminlarning o'zlashtirilish darajasini faqat ularning etimologiyasi orqali baholash yetarli emas. Mazkur jarayonda terminning qaysi tildan kirgani, qanday moslashuv bosqichlarini bosib o'tgani, iqtisodiy terminologiya tizimida qanday semantik vazifani bajarayotgani hamda yangi terminologik birliklar hosil qilish imkoniyati ham muhim mezon hisoblanadi. Aynan shu omillar terminning terminologik tizimdagi faolligini va ilmiy-amaliy qiymatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiyot sohasida keng qo'llanilayotgan ayrim xalqaro terminlarning kelib chiqishi, o'zlashtirilish yo'llari, semantik rivojlanishi hamda terminologik mahsuldorligini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiy terminlarning o‘zlashtirilishi til taraqqiyotining tabiiy va uzluksiz jarayoni bo‘lib, u

terminologik tizimning boyishi hamda xalqaro iqtisodiy muloqotning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot davomida iqtisodiy terminlarning manba tili, o‘zlashtirish yo‘llari, fonetik, grafik, morfologik va semantik moslashuv xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarni etimologik manbasi va shakllanish usullariga ko‘ra tasniflash ularning terminologik tizimdagi funksional o‘rnini aniqlash imkonini berishi asoslandi. Natijalar iqtisodiy terminlarning xalqaro standartlashuv jarayoni bilan bir qatorda milliy til me'yorlariga ham moslashib borishini ko‘rsatdi. Bu esa o‘zbek va ingliz tillaridagi iqtisodiy terminlarning qiyosiy tadqiqi uchun zarur nazariy va metodologik asos yaratadi hamda keyingi bo‘limlarda ularning semantik va funksional xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
- 2.Dudley-Evans T., St John M. J. *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 301 p.
- 3.Harmer J. *The Practice of English Language Teaching*. 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2015. – 446 p.
- 4.Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
- 5.Nation I. S. P. *Learning Vocabulary in Another Language*. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – 638 p.